

SAMARQAND ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA TURIZMGA TA'SIRI

Turg'unbaeva Muxlisa Sunnatillo qizi
Qo'qon Universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti
4 – bosqich talabasi
turgunbaevamuxlisa5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand shahridagi ziyorat turizmini rivojlantirish va turizmga ta'siri hamda ziyoratgohlardagi kamchiliklar haqida ma'lumotlar yoritilgan. Va Turizmni yanada rivojlantirish, tashrif buyuruvchi turistlar sonini qanday qilib oshirish masalasi va turizmni iqtisodiyotga keltiriyotgan foydasi haqida.

Kalit so'zlar: ziyoratgoh, ma'naviy, milliy qadamjolar, mehmonlar, turizm

Аннотация: В данной статье речь идет о развитии паломнического туризма в городе Самарканде и его влиянии на туризм, а также о недостатках мест паломничества. О вопросе дальнейшего развития туризма, способах увеличения количества приезжающих туристов и пользе, которую туризм приносит экономике.

Ключевые слова: Паломнические, духовные, национальные достопримечательности, гости, отели, туризм

Kirish

Bugungi kunda turizm rivojlanayotgan mamlakatlarda deyarli barchasida mavjud bo'lgani kabi O'zbekistonda ham turizm taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa Samarqand shahri nafaqat sharq balki umumjaxon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Aynan mazkur zamin g'oyat xilma-xil ziyoratgohlarga, muqaddas qadamjoylarga, tarixiy, me'moriy obidalarga boy hududdir. Tarixdan ma'lumki, Samarqand shahri qadimdan o'zinging tarixiy obidalar bilan mashhur bo'lishi bilan birga o'ziga xos ziyoratgoh shahar, turizm rivojlangan hudud hisoblanadi. Ushbu hududda shunchalik ko'p ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar, me'moriy obidalar mavjudki, boshqa yurtlarda bunchalik ko'p va mashhur avliyolar, ulamolar, allomalar ziyoratgohlari va qadamjoylarning majmuasini topish amrimaholdir. Bu yerda dunyoga mashhur islomiy ulamolar nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar shuningdek, islomgacha bo'lgan diniy qarashlar bilan bog'liq qadamjoylar, Movorounnahr zaminiga islomni olib kelgan shaxslar va ularning avlodlari, davlat arboblari, tariqat vakillarining qabrlari va qadamjoylari, shuningdek islomiy ziyoratgohlar bilan birga islomgacha bo'lgan o'zaro uyg'unlashgan ko'rinishlarini uchratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi

xalqaro imidjini shakllantirishda ayrim hududlar, xususan, Samarqand viloyati va Samarqand shahrining turizm salohiyati beqiyos o‘rin egallaydi. Samarqand viloyatida jami 69 ta turizm operatorlari xamda 107 ta joylashtirish vositalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2001-yilda Samarqandning o‘rta asrlar me‘morchiligining noyob arxitektura shakllariga ega bo‘lgan yodgorliklari, madaniy meros obyektlari, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ilmiy, tarixiy va san‘at asarlari haqli ravishda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan. 2023 – yil BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro turistik tashriflari soni 1,3 mlrd , kishiga soha tushumlari 1,4 trln . AQSH doll. ga yetdi . Bu ko‘rsatkichlar pandemiya oldidagi darajaning 88% va 93% ini tashkil etadi. Bugungi kunda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish, undan foydalanish samaradorligini oshirish, turistlarni noyob madaniy meros obyektlari bilan keng tanishtirish uchun kulay shart-sharoitlar yaratish, hududda zamonaviy turizm infratuzilmasining izchil rivojlanishini ta’minlash hamda “Samarkand city” turizm zonasini barpo etish maqsadida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi farmon va qarorlari ijrosini ta’minlash doirasida mazkur masalalarni kompleks yondashuv asosida hal etish xamda istiqbolda tashrif buyuradigan xorijiy turistlar uchun yanada qulay shart-sharoitlarga ega turizm infratuzilmasini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha chora-tadbirlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Shu munosabat bilan Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko‘paytirish, ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar xilma-xilligini oshirish va sifatini ta’minlash, yangi turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

I. “Samarkand city” turizm zonasini barpo etish ishlarini muvofiqlashtirish

Samarkand city” turizm zonasining batafsil rejalashtirish loyihasini shakllantirish, turizm infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish rejalari va loyihaning texnik iqtisodiy asosini (loyiha-smeta hujjatlarini) ishlab chiqish ishlarini belgilangan muddatlarda yakunlanishini ta’minlash.

II. Samarqand viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish

Turistlarning kechki vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ular uchun doimiy namoyishni tashkil etish maqsadida Registon maydonidagi lazerli 3D shouni barcha uskunlari bilan birgalikda Samarqand shahar hokimligiga o‘tkazish masalasi bo‘yicha asoslangan taklif ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

III. Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko‘paytirish

Samarqand xalqaro aeroportida, vokzalida, turizm namoyishi obyektlarida, turizm infratuzilmalarida, umumiy foydalanishdagi turistlar jamlanadigan boshqa obyekt va hududlarda . Tunu-kun faoliyat yuritadigan turizm axborot markazlari faoliyatini

to'laqonli yo'lga qo'yish, Samarqand viloyatining va Samarqand shahrining turizm xaritasi, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar (teatr, ochiq tomosha, ko'rgazma, galereya, yarmarka va boshqalar) uchun chiptalar olish xamda tadbirlar taqvimini to'g'risidagi ma'lumotlarning bepul tarqatilishini ta'minlash.

IV. Yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan kelishgan holda, turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega tuman va shaharlarda joylashgan xamda muhandislik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan foydalanilmayotgan yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish va ajratish hamda turizm sohasidagi loyihalarni (mehmonxonalar, mehmonxona uylari, kempinglar, motellar va boshqa joylashtirish vositalari, xiyobonlar, muzeylar, galereyalar va boshqa inshootlar qurish) amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari hamda salohiyatli investorlar uchun tegishli ma'lumotlarni, shu jumladan investitsiya kiritish majburiyatlari to'g'risida Samarqand viloyati hokimligi xamda mas'ul vazirlik va idoralarning rasmiy veb-sahifalariga joylashtirish.

Samarqand shahrida, Payariq tumanidagi Imom al-Buxoriy majmuasiga tutash hududlarda mehmonxonalarni (20 tadan ortiq) barpo etish uchun zarur miqdorda yer maydonlarini belgilab, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilgan holda zamonaviy mehmonxonalar qurish bo'yicha investitsiya takliflarini shakllantirish

Samarqand viloyatiga tashrif buyuradigan xorijiy va mahalliy turistlarning sayohatlarini yanada qiziqarli bo'lishini tashkil etish, sayyohlarning hududda qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida Samarqand shahridagi:

Alisher Navoiy ko'sasi va Universitet xiyobonida tarixiy binolar joylashganligi, ko'chalarning kengligi va shaharning asosiy ko'chalariga olib chiqishini inobatga olib, ushbu ko'cha va xiyobonni turistlar sayr qiluvchi ko'chaga;

Pushkin ko'chasini Yevropa, va Rossiya Federatsiyasidan tashrif buyuruvchi turistlar dam olishi uchun mo'ljallangan maskanga aylantirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar va ko'chalar loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

Samarqand shahrida usti yopiq, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan hunarmandchilik, kiyim-trikotaj, suvenir va boshqa mahsulotlar sotuvi uchun mo'ljallangan, yangi mahsulotlar turini namoyish etish uchun "show rum" (show room) zallarini ichida mujassam etgan, an'anaviy sharqona me'morchilik uslubidagi savdo majmuasini barpo etish va ishga tushirilishini ta'minlash.

Turkiyalik investor tomonidan qurilishi rejalashtirilgan 130 o'ringa mo'ljallangan 4 yulduzli mehmonxona uchun yer maydoni ajratish ishlarini tezlashtirish.

Smeta-loyiha hujjatlarini tezkor ishlab chiqish va aniqlangan yer maydonida qurilish ishlarini zudlik bilan boshlash

Samarqand shahar Bo'stonsaroy ko'chasida 100 o'ringa mo'ljallangan to'rt yulduzli mehmonxona tashkil etish.

Samarqand shahar eski shahar qismida 50 o'ringa mo'ljallangan uch yulduzli milliy uslubdagi mehmonxona tashkil etish.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida xar bir tumanda kamida 5 ta mehmon uylari tashkil etish.

Samarqand shahridagi Sattipo turizm kolleji hududida O'zbekiston yoshlar ittifoqi mablag'lari hisobidan 100 o'rinli xostel tashkil etish.

Buyuk allomalar Burxonpddin Marg'inoniy va Abu Lays Samarqandiylarning dafn qilingan maskanlari hududida ziyoratchilar uchun barcha shart-sharoitlarni nazarda tutuvchi kompleks loyihalarni ishlab chiqish, bunda tasdiqlangan loyihalar asosida olib boriladigan ishlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash.

Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Shohi zinda majmuasi, Samarqand xalqaro aeroporti, temir yo'l vokzali, yirik mehmonxonalar, restoranlar, istirohat bog'lari kabi xorijiy turistlar ko'p tashrif buyuradigan va jamlanadigan obyektlarda xorijiy valyuta qabul qilish terminallari, valyuta ayirboshlash shoxobchalari va bankomatlarini (Visa Card, Master card, American Express va boshqalar) o'rnatish va muntazam faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida "Uzbek Nouse" etnik-animatsion markazini tashkil etish.

Bunda markazni Samarqand viloyatining Urgut tumani tog'li hududida 6 gektar yer maydonida (tog'li hududga tugash joylashgan joyda) qurishni nazarda tutish. Loyiha doirasida milliy ko'rinishdagi ovqatlanish kompleksi, XVI-XVIII asrlarni o'zida mujassam etgan ko'rgazmali sahna, ustaxonalar, sahna atrofida joylashgan o'tirish uchun o'rindiqlar, maxsus animatsion dasturlar taqdimoti uchun qurilgan maydon, tomorqa, oshxona, sanitar xonalari, tajriba maydonchalari xamda tutash hududga mahsulotlarni yetishtirishga mo'ljallangan kichik ko'rinishdagi issiqxona qurilishini nazarda tutilmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizm sohasi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, ziyorat turizm eng rivojlangan va tarixiy shahar Samarqand. Samarqand viloyatida ham turizmni yanada rivojlantirishga, sayyohlar uchun barcha qulayliklarni yaratishga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Natijada ko'plab yangi-yangi sayyohlik yo'nalishlari, turizm manzillari paydo bo'lyapti. Birgina o'tgan yilning o'zida viloyatda 20 dan ortiq yangi turizm yo'nalishlari tashkil etildi. Samarqandda bugunga kelib ziyorat turizmi ob'yektlari soni 50 tadan oshdi. Shuningdek, 40 dan ziyod gastronomik turizm nuqtalari, 30 ga yaqin ekoturizm maskanlari, 20 ortiq tibbiy turizm muassasalari, qolaversa etnoturizm agroturizm ob'yektlari tashkil etildi. Samarqand tumanida turistik markaz tashkil etilmoqda. Bu so'lim maskanda 8 ta zamonaviy mexmonxona, yirik anjumanlar zali, restoranlar,

bog` va sayilgohlar tashkil etildi. Kelgusida integral indekslar va klister tahlillari orqali soha innovatsion rivojlanishga erishishi kutilmoqda. Samarqand Ziyorat turizmini rivoji mamlakat turizmiga ham o`z ta'sirini ko`rsatmoqda. Joriy yil turizm ko`rsatgichlari o`tgan yillar turizmi ko`rsatgichlaridan ancha yuqori.

Foydalanilgan adabyotlar:

- 1 "SAMARQAND HUDUDIDAGI ZIYORATGOHLARNI XALQ TURMUSHIDAGI O`RNI" Abdumannonov Oybek
Abdumannonovich <https://doi.org/10.5281/zenodo.7605460>
- 2 O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov Toshkent sh. 30.09.2019 yil 828-sonli qaror "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"
<https://lex.uz/docs/-4532217>
- 3 O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent.sh 16.03.2018 yil PQ-3609-son qarorga muvofiq "2018-2019-yillarda Samarqand viloyatida turizimni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/-3827576>
- 4 <https://xs.uz/uz/post/samarqandning-turizm-salohiyati-ulkan-manzillari>
- 6 <https://zarnews.uz/uz/post/buyuk-ipak-yoli-chorrahasidagi-samarqand-qadimiy-salohiyatini-tiklashga-intilmoqda>